

## **“PADARKUSH” DRAMASINING G‘OYAVIY AHAMIYATI XUSUSIDA**

*G‘oipnazarova Durdona,  
JDPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich talabasi  
Ilmiy rahbar , f.f.f.d.(PhD) Dilnavoz Salimova*

Xuddi uzoq moziyda bo‘lganidek, yaqin o‘tmishda ham xalqimiz orasidan ko‘plab mashhur shoirlar, ulkan olimlar, xalqparvar va vatansevar kishilar yetishib chiqqan. Ular o‘z ijodlari bilan millat ijtimoiy tafakkuri taraqqiyotiga bebaho hissa qo‘shganlar. Ana shunday tafakkur taraqqiyotiga hissa qo‘shgan jurnalist va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiydir.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining ”Padarkush” dramasi bilan o‘zbek adabiyotiga drama janrini olib kirganligi bilan ahamiyatli sanaladi. U Yassaviy avlodidan bo‘lgan. O‘n sakkiz yoshidan qozixonada mirzalik qiladi, qozi, muftiy darajasigacha ko‘tarilgan.

Behbudiy yozgan asarlariga to‘xtalsak, aksariyat asarlari ta’lim-tarbiya tizimini yangicha usulda tashkil etib, rivojlantirishga qaratilgan. Behbudiy ta’lim tizimini mustahkam poydevor asosida qura olmaydigan jamiyatlarning taqdirini o‘zgartiruvchi bir qancha asarlar yaratdi, “Risolayi asbobi savod” („Savod chiqarish kitobi”), „Risolai jug‘rofiya umroniy” („Qisqacha umumiy geografiya”), „Kitobat ulbatfol” („Bolalar xati”), „ Amaliyoti islom” , „Tarixi islom” kabi kitoblari chop ettirdi. Behbudiy o‘z zamonasi yoshlariga murojaatida bunday yozadi: “Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondirki, maktablar - taraqqiyotining boshlang‘ichi, madaniyati va saodatning darvozasidir. Har millat eng avvalo maktablar ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko‘paytirmaguncha taraqqiy yo‘lig‘a kirib madaniyatdan foydalanmas”. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z zamonasining yoshlarini shunchalar bilimli bo‘lishini xohlagan ediki, uning tashabbusi bilan o‘z otasi sharafiga “Behbudiya kutubxonasi”ni tashkil qildi. Behbudiy bundan tashqari vatandoshlarining ko‘proq ma’rifatli bo‘lishi uchun ro‘znoma va jurnallar nashrini yo‘lga qo‘yishda ishtirok etdi.

Behbudiyning “Padarkush” pyesasini birinchi o‘zbek drama asari sifatida dramaturgiyaning keyingi rivoji uchun eshik ochdi, desak mubolag‘a bo‘lmas. Uch parda, to‘rt manzarali dramatik senariy mazmunan sodda bo‘lib, o‘qimagan, johil va nodon bolaning o‘z otasini o‘ldirgani haqida. Mahmudxo‘ja Behbudi “Padarkush” (yoki “O‘qimagan bolaning holi”) dramasi yozish bilan adabiyotda o‘ziga xos yangilik yaratdi. Avvalo, shuni aytish joizki, “Padarkush” dramasi inqilobiy g‘oyalar emas, ma’rifatchilik, komillik qarashlarini ilgari suradi. Pyesada chorizm mustamlakachilik siyosatini fosh etuvchi va qoralovchi fikr-mulohazalar yo‘q bo‘lishiga qaramay, “Padarkush”ni sahnalashtirish o‘zi yaratilgan davrlarda ruxsat berilmagan. “Padarkush” asari yangi g‘oyani targ‘ib etishning yangi usuli sifatida yuzaga keldi. Jadidlarning qarashlarini ommaga taqdim etish uchun katta auditoriya kerak edi. Bunda barchaga birdek tanish, birdek qiziq hamda zo‘riqib o‘qilmaydigan asar ekaniga guvoh bo‘lamiz. Shu bilan birga tarbiyaviy ahamiyati bugungi kunimizda, ta’lim-tarbiya raqamli iqtisodiy hamda pandemiya davridagi ma’naviy qarashlar hamda kitobxonlik darz ketmasligi uchun dolzarb masalalar namoyoni deb qabul qila olamiz.

Asar bosh qahramoni davrining befarq: “Bizlarni xonavayron ...bevatan va bandi qilg‘on tarbiyasizlik va jaholatdir, bevatanlik, darbadarlik, jasorat, faqirlik, zarurat va xorliqlar... hammasi ilimsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir...”, degan yo‘sinda bayon qiladi. Bizning nazarimizda o‘sha davr yoshlariga vatan tuyg‘usi singishi kerak edi, buning uchun oila birinchi qadamdir. Oilada ilm-ma’rifatga e’tibor berilmagan sharoitda “padarkush”ga o‘xshagan farzandlar jaholat botqog‘iga tortilib boraveradilar. Xalqimiz tomonidan “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan maqol bejiz keltirilmagan. Ma’rifatparvar behbudiyning zamon ichra og‘riqli tashvishi millatimiz yoshlarining o‘z uylarida ma’rifat chirog‘ini yoqishni istamaydigan ota-onalarga da’vat etgudek muerojaati deb ham tushunamiz ushbu pyesani. Darhaqiqat, oilada ota-onaning ta’limga sarf qilingan sarmoyasi pirovardida farzandning kamoloti o‘z natijasini berishi tabiiy. Ko‘z oldimizga Boy obrazi orqali pul topishga, mol-dunyo to‘plashga aqli yetgan ammo farzand tabiyasi uchun vaqtini ham, moddiy imkoniyatini ham qizg‘ongan

johil, qoloq ota qiyofasi keladi. O‘zining ham ilm va ma’rifatdan bexabarligi bois, Domlaning ham, Ziyolining ham nasihat va maslahatlariga quloq tutmaydi; savollariga qo‘pollik bilan, beparvo, loqayd, hatto farzandini o‘qitish masalasini jiddiy deb tushunish o‘rniga ensasi qotadi. Boyning dunyoqarashini inson qadri ham, obro‘- e’tibori ham boylik bilan o‘lchanadigan mavqe, va badavlatligi tufayli hamma uni izzat-hurmat qiladi degan razilona qarash egallab olgan. Dramada boyning eng katta xatosi ziyoli kishining so‘zlariga quloq solmasdan, quloq solsa ham, noilojlikdan, mudrab, o‘z jigarbandining taqdiriga befarq qaraganidir.

O‘zbek xonadonlarida farzand otaga itoatkor bo‘lishi kutiladi. Asar ziddiyatli harakatlarni o‘zida jamlagan bo‘lib, bir-biriga qarama-qarshilik, ma’rifatlilar bilan johillar, ilmlilar bilan ilmsizlar, ogohlar bilan loqaydlar o‘rtasidagi kurash tarzida yoritib berilgan. Boyning arzandasi Toshmurod do‘st kim, dushman kim - farqiga bormaydi. Shuning oqibatida Tangriqul bilan o‘z uyiga o‘g‘rilikka borishga rozi bo‘ladi. Maishatparast sheriklari bilan otasining sandiqdagi mol-mulkini o‘marish yo‘llarini rejalashtirib, ularni o‘z uyiga boshlab boradi. O‘g‘rilik qilayotgan o‘z farzandini sezgan otasini o‘ldirib, pulini olib ketadi. Boyning arzandasi Toshmurot o‘qimagani, ko‘cha changitib yurgani sabab ham o‘zidan “tajribali” o‘g‘rilarga ergashadi. Mavzuga diqqat qilinsa, oradan bir asrdan oldinroq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, ayni zamonamizda ham o‘qimagani bois turli aldovlarga ishonib, oq-qorani ajratolmay kabih yo‘llarga kirib qolayotgan yoshlar uchrayotgani fikrimizni dalillaydi.

Drama xalqqa kuchli ta’sir ko‘rastdi. Dramadan ta’sirlanib Abdulla Qodiriy “Baxtsiz kuyov” pyesasini yozgani bizga ma’lum. Abdulla Qodiriy ilk pyesasini qanday yaratganini o‘zi haqidagi xotiralardan bilib olishimiz mumkin: “1913-yilda chiqqan “Padarkush” pyesasi ta’sirida “Baxtsiz kuyov” degan teatr kitobini yozib yuborg‘onimni o‘zim ham payqamay qoldim”, degandi u 1915-yilda. Demak, mazkur dramatik asar g‘oyasi, kompozitsiyasining ayrim xususiyatlari Behbudiy bilan hamfikir adiblar – Fitrat, Cho‘lpon, Avloniy, Qodiriy ijodiga o‘zining ta’sirini ko‘rsatganidan dalolat beradi. “Padarkush” dramasi o‘zbek teatri sahnasida

qo'yilgan ilk senariy sifatida tarixga muhrlanganini eslatib o'tish joiz. Chunki ushbu ma'rifatga chorlovchi, ushbu yo'lda ota-onalarni hushyorlikka chorlovchi bu asar tadqiqotchilar fikriga ko'ra nafaqat "o'qimagan bolaning otasini o'ldirishi haqida"gi sujet bo'lib qolmasdan, shuningdek, "mol-dunyo, hokimiyat vasvasasida qatl etilgan Mirzo Ulug'bek bilan bog'liq otakushlik fojiasidan boshlangan Turkiston tanazzuli xususidagi tragediyadir".

Xulosa qilib aytganda, "padarkush"lar ko'paymasligini, nafaqat padarkushlar balki ilmsizlarnng o'zini kamaytirish kerak deb hisoblaymiz. Buning uchun, moddiy boyliklar oldida ilm, ta'lim, tarbiya qanchalik kata ma'naviy mulk ekanligini anglay olmog'imiz va bo'lajak o'qituvchilar sifatida yosh avlodga anglata olmog'imiz muhimdir.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. B. To'xliyev, B. Karimov, K. Usmonova. Adabiyot - 2017.
2. Б.Назаров, С.Мирвалиев, Б.Тухлиев. Адабиётшуносликка кириш. – Т., 2007.
3. O'zbek adabiyoti. O'rta maktablarning 11-sinfi uchun darslik. –Т.: "O'qituvchi", 2004. – B.71
4. Saydulla Mirzayev, XX asr O'zbek adabiyoti. - 2005.

